



AQSH GENDER SIYOSATI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Huquqiy fanlar kafedrası (Ma'naviyat asoslari) 1 bosqich magistranti*

Jalolova Dilnoza

Annotatsiya: *Maqolada Amerika Qo'shma Shtatlaridagi gender siyosati masalalari va ushbu masalalardagi muammolar atroflicha yoritildi. AQSH hukumati tomonidan qabul qilingan qonun hujjatlari orqali gender siyosatidagi rivojlanish tendensiyasi tahlil qilindi. AQSHning turli davrlarda faoliyat yuritgan prezidentlari siyosatida gender masalalari o'rganib chiqildi va ularning nutqlaridan iqtiboslar keltirildi.*

Kalit so'zlar: *Gender, jinsiy diskriminatsiyani, LGBTQ+, gender indifikatsiya, jinsiy orientatsiyalar*

Абстрактный: *В статье подробно освещены вопросы гендерной политики в Соединённых Штатах Америки и проблемы, связанные с этими вопросами. Проанализирована тенденция развития гендерной политики через законодательство, принятое правительством США. Гендерные вопросы были изучены в политике президентов США, работавших в разные периоды, и приведены цитаты из их выступлений.*

Ключевые слова: *Гендер, сексуальная дискриминация, ЛГБТК+, гендерная идентификация, сексуальная ориентация.*

Abstract: *In the state, the issues of gender politics and the problems of the United States of America are related to the issue of orphans. Proanalizirovana tendency razvitiya gendernoy politiki through legislation, prinyatoe pravitelstvom SShA. Gender*



issues have been studied in the politics of the presidents of the USSR, who have worked in different periods, and the quotations from them have been presented.

Key words: *Gender, sexual discrimination, LGBTQ+, gender identification, sexual orientations*

Kirish.

Gender tengligi masalasi zamonaviy dunyoning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, AQShda ham ushbu masala davlat siyosati va jamiyat hayotida muhim o'rin egallaydi. Gender siyosati nafaqat ayollar va erkaklar orasidagi teng imkoniyatlarni ta'minlashni, balki barcha jinsiy orientatsiyalar va gender indifikatsiyalarni hurmat qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada AQSH gender siyosatining tarixiy rivojlanishi, hozirgi holati va asosiy muammolari tahlil qilinadi.

Asosiy qism:

AQSH bugungi kunda dunyoning eng demokratik davlarlaridan biridir. AQSHda gender masalalari ancha yillik tarixga ega muammolardan biridir AQSHning ko'plab prezidentlari gender masalasiga alohida e'tibor qaratib ushbu masala bo'yicha ko'plab qonun hujjatlarini qabul qilganlar. Prezidentlarning ushbu soha yuzasidan olib brogan siyosatlari bugungi kunda ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Xususan, AQSH sobiq prezidenti Barak Obama takidlaganidek "Biz ayollarga faqat imkoniyat berish haqida gapirmasligimiz kerak. Biz ularga yetakchilik qilishga imkoniyat yaratishimiz lozim."¹

AQSH gender siyosatining rivojlanishi bir necha bosqichlardan o'tgan :

-XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollar huquqlari uchun kurash . Bu davrda ayollarning saylov huquqi uchun harakatlar (suffragetlar harakati) katta

¹ AQSH prezidenti B.Obamaning nutqidan



ahamiyat kasb etadi. 1920 yilda AQSH Konstitutsiyasiga 19- o'zgartirish kiritilib, ayollarga ham saylovda qatnashish huquqi beriladi.

-1960-1970-yillar ushbu davrda gender tengligi masalalari mehnat bozori, ta'lim va oiladagi rollarga qaratildi. 1964-yilda qabul qilingan Fuqarolik huquqlari to'g'risidagi qonun (Civil Rights Act) jinsiy diskriminatsiyani taqiqladi.

-XXI asrda gender indifikatsiya va LGBTQ+ huquqlari. Zamonaviy davrda gender siyosati ko'proq gender indifikatsiya va jinsiy orientatsiyalar masalalarini qamrab olmoqda. 2015-yilda AQSHda Oliy sud qarori bilan bir jinsli nikohlar qonuniylashtirildi. Bu esa bugungi kunda o'zing salbiy natijalarini ko'rsatmoqda.

AQSh sobiq prezidenti **Jon Kennedi** gender tengligi masalalariga alohida e'tibor qaratgan prezidentlardan biri edi. 1961 yida u gender dskriminatsiyasiga qarshi kurashish va ayollarning mehnat sharoitlarini yaxshilash maqsadida Ayollar holatlari bo'yicha Prezident komissiyasini tashkil etgan . Nutqlarida ayollar mehnatini qadrlash va gender tengligini oshirish zaruratini ta'kidlagan. "Ayollarning jamiyatdagi roli faqat oila doirasida emas, balki ishchi kuchi, iqtisodiyot, ta'lim va davlat boshqaruvi kabi sohalarda ham juda muhim. Teng imkoniyatlar yaratish nafaqat adolat, balki davlatimizning rivoji uchun ham zarur. Har bir fuqaroning huquqlarini himoya qilish va imkoniyatlarini kengaytirish bizning asosiy vazifamizdir."²- deya takidlaydi nutqlaridan birida Kennidi.

Lindon Jonson esa 1964 yilda Fuqarolik huquqlari to'g'risida qabul qilgan ushbu qionunning VII bo'limi jinsiy dskriminatsiyaga qarshi kurashni ta'minladi. Jonson bu qonunni qabul qilishni faol qo'llab quvvatlagan. Uning hukumati ayollarning mehnat bozorida ishtirokini kengaytirishga intilgan. U o'z nutqida "Erkinlik- faqat bir necha kishi uchun emas, balki hamma uchun haqiqat bo'lishi kerak.

² Jon Kennidining 1963-yil 10 iyun kuni Amerika ayollar tashkilotiga qilgan murojatidan



Ayollar ham Erkaklar qatori teng imkoniyatlardan foydalanish huquqiga ega.” degan edi.

Barak Obama. Obama gender tengligi borasida katta qadamlar tashladi va bu mavzuni tez tez nutqlarida ko'tardi. Lilly Ledbetter Fair Act(2009) Obamaning imzolagan birinchi qonuni bo'lib, ayollarning erkaklar bilan teng maosh olishini ta'minlashga qaratilgan. U rafiqasi Michelle Obama bilan birgalikda qizlar ta'limiga va gender tengligiga alohida e'tibor qaratadi. Nutqlarida ayollar huquqlarini inson huquqlari sifatida takidlab, gender tengligini iqtisodiy rivojlanishning muhim qismi deb hisoblagan. BMT sammitida Obama “Gender tengligi nafaqat ayollar masalasi, bu jamiyatning masalasi. Ayollarni qo'llab quvvatlash orqali biz oilalarni, iqtisodiyotni va umuman dunyoni yanada barqaror qilamiz.”³ deya takidlaganing o'zi Obama hukumati gender masalasini qay darajada yuqori o'ringa olib chiqqanining yorqin isbotidir.

Donalt Tramp. Trampning gender siyosati tanqid qilinsada, uning hukumati ham ayollar uchun muayyan dasturlarni amalga oshirdi. Tramp qizlarning ta'lim olish imkoniyatlarini oshirish tashabbusini qo'llab quvvatladi bundan tashqari ayollar biznesini qo'llab quvvatlash bo'yicha xalqaro dalqaro dasturlarga mablag' ajratgan.

Jo Bayden. Bayden gender tengligi siyosatini o'z ma'muriyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri qilib belgilagan. AQSH tarixida birinchi marta Gender siyosati bo'yicha milliy strategiya ishlab chiqildi. U gender tengligini barcha sohalarda rivojlantirishni ko'zda tutadi. Bayden davrida Kamala Harrisning vitse-prezident etib saylanishi AQSH tarixida birinchi marta vitse president lavozimiga ayol kishi tayinlashi edi. Bayden nutqlarida gender tengligi masalasini inson huquqlari va iqtisodiy rivojlanish uchun zarur asos sifatida ta'kidlaydi.

³ Barak Obamaning 2016-yida BMT Gender tengligi va Ayollar huquqlari bo'yicha Sammitdagi nutqidan.



Yuqoridagi misollar AQSH prezidentlarining gender siyosati borasidagi yondashuvlari va nutqlari qanday rivojlanib borganini ko'rsatadi. Har bir president o'z davrining talab va ehtiyojlariga qarab bu sohada ish olib borgan.

AQSH gender siyosati hozirgi kunda quyidagi sohalarga qaratilgan:

Mehnat bozori va iqtisodiy tenglik: Ayollar va erkaklar o'rtasidagi maosh tafovutlarini bartaraf etish uchun ko'plab choralar ko'rilmoqda. Masalan, "Equal Pay Act" va boshqa qonunchilik hujjatlari orqali ish beruvchilar nazorat qilinmoqda.

Ta'lim sohasida ham teng imkoniyatlar uchun sezilarli islohotlar o'kazilmoqda. Ta'limda gender tengligini ta'mimlash uchun Title IX qonuni (1972 yil) qabul qilingan bo'lib, jinsiy diskriminatsiyani taqiqlaydi.

Zo'ravonlik va jinsiy tajovuzga qarshi kurash. Gender asosida zo'ravonlikka qarshi qonunlar (masalan, Violence Against Women Act) qabul qilinib, zo'ravonlik qurbonlariga yordam ko'rsatilmoqda.

Gender siyosatidagi muammolar va qarama qarshiliklar. AQSH gender siyosati ko'plab yutuqlarga erishgan bo'lsada, hali ham yechilishi lozim bo'lgan muammolar mavjud:

-gender maosh tafovutlari: Ayollar hali ham erkaklarga qaraganda kamroq maosh olishadi, ayniqsa qora tanli va lotin amerikalik ayollar orasida.

-zo'ravonlik va tazyiq: Ayollarga nisbatan zo'ravonlik va jinsiy tajovuz holatlari davom etmoqda.

-LGBTQ+ huquqlariga qarshi reaksiyalar: Ba'zi shtatlarda transgender huquqlari va bir jinsli nikohlar bo'yicha qarama-qarshiliklar kuzatilmoqda.

-qonunchilik va siyosiy to'siqlar: Gender tengligini taminlash bo'yicha qonunlarning amalga oshirilishida ayrim shtatlarda qarshiliklar uchraydi.



Xulosa va tavsiyalar:

AQSH gender siyosati jamiyat hayotining barcha jabhalarida tanglikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu borada yirik muvaffaqiyatlarga erishilgan. Biroq, hali ham mavjud muammolarni hal qilish uchun :

1. Gender tengligi bo'yicha qonunlarning ijrosini kuchaytirish
2. Gender tafovutlarni bartaraf etish uchun keng qamrovli dasturlarni joriy etish.
3. Gender asosidagi zo'ravonlikka qarshi choralarni kuchaytirish.

Gender tengligi masalari nafaqat AQSH uchun balki butun dunyo uchun dolzarni masaladir. Ushbu sohadagi yutuqlar nafaqat inson huquqlarini ta'minlash, balki jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Munisa Zokirjonova "Jamiyatga gender tenglik nima uchun kerak? ". Birlashgan Millatlar "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3 Issue 3 www.openscience.uz 505
2. Ibrohim Shuxratovich Fayziyev "Gender tengligi: ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish" ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
3. "Violence Against Women Act" rasmiy ma'lumotlari.
4. Gender tengligi bo'yicha xalqaro tashkilotlar hisobotlari.
5. Barak Obamaning 2016-yilda BMT Gender tengligi va Ayollar huquqlari bo'yicha Sammitdagi nutqi
6. Jon Kennidining 1963-yil 10 iyun kuni Amerika ayollar tashkilotiga qilgan murojati.